

---

## The issue of the impact of lexical-semantic changes on socio-cultural communication

**Aminova Khalima Akobir qizi**

[halimaaminova3@gmail.com](mailto:halimaaminova3@gmail.com)

Master's student,

Uzbek State World Languages University

Scientific advisor: **Bakhronova Dilrabo Keldiyorovna**

Doctor of philological sciences (DcS), professor

---

### Annotation

*This article examines lexical-semantic transformations that emerged during the COVID-19 pandemic through the lens of socio-cultural communication. The study analyzes the linguocultural function of the war metaphor in pandemic discourse, the phenomenon of virus personification, and the semantic reinterpretation of the concept of "freedom." The article investigates slogans, symbolic syntagms, and emotionally charged discursive tools employed in Uzbekistan and international public communication. Furthermore, it explores alternative discourses opposing official narratives, including political opposition speech, denialist (negationist) rhetoric, and the phenomenon of fake news from a linguistic perspective. The research draws on corpus-based and discourse analysis methods to examine how pandemic language functioned as an ideological and emotional tool in public communication. The findings demonstrate that pandemic lexicon transcended the boundaries of medical terminology, evolving into a linguocultural phenomenon encoding social psychology, political ideology, and cultural values. Pandemic language has formed a complex semantic system reflecting collective emotions such as fear, solidarity, responsibility, and hope within society.*

### Keywords

*Lexical-semantic change, pandemic discourse, war metaphor, personification, linguoculturology, social communication, fake news, semantic expansion, solidarity discourse, concept of freedom, COVID-19 lexicon, public speech, ideological polarization, emotional discourse, collective identity.*

---

## Leksik-semantik o'zgarishlarning ijtimoiy-madaniy kommunikatsiyaga ta'siri

**Aminova Halima Akobir qizi**

[halimaaminova3@gmail.com](mailto:halimaaminova3@gmail.com)

Magistrant,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ilmiy rahbar: **Baxronova Dilrabo Keldiyorovna**

Filologiya fanlari doktori, professor

---

### Annotatsiya

*Ushbu maqola COVID-19 pandemiyasi davrida yuzaga kelgan leksik-semantik o'zgarishlarni ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Tadqiqotda urush metaforasining pandemiya diskursidagi lingvokulturologik funksiyasi, virusning personifikatsiyasi hodisasi va "erkinlik" konseptining semantik qayta talqini keng yoritilgan. Maqolada O'zbekiston va xalqaro ommaviy kommunikatsiyada qo'llangan shiorlar, ramziy sintagmalar hamda emotsional yukga ega diskursiv vositalar tahlil qilingan. Shuningdek, rasmiy diskursga muqobil bo'lgan siyosiy muxolifat nutqi, inkorchi (negatsionistik) qarashlar va yolg'on*

*axborot (fake news) fenomeni lingvistik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqotda korpusli va diskursiv tahlil metodlaridan foydalanib, pandemiya leksikasining ommaviy kommunikatsiyada ideologik va emotsional vosita sifatida qanday faoliyat ko'rsatgani o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pandemiya leksikasi tibbiy terminologiya doirasidan chiqib, ijtimoiy psixologiya, siyosiy ideologiya va madaniy qadriyatlarni kodlovchi lingvokulturologik fenomenga aylangan. Pandemiya tili jamiyatning qo'rquv, birdamlik, mas'uliyat va umid kabi kollektiv his-tuyg'ularini aks ettiruvchi semantik tizim sifatida shakllangandir.*

**Kalit so'zlar** *Leksik-semantik o'zgarish, pandemiya diskursi, urush metaforasi, personifikatsiya, lingvokulturologiya, ijtimoiy kommunikatsiya, fake news, semantik kengayish, birdamlik diskursi, erkinlik konsepti, COVID-19 leksikasi, ommaviy nutq, ideologik polarizatsiya, emotsional diskurs, kollektiv identifikatsiya*

---

## **Влияние лексико-семантических изменений на социокультурную коммуникацию**

**Аминова Халима Акобир кизи**

[halimaaminova3@gmail.com](mailto:halimaaminova3@gmail.com)

Студент магистратуры,

Узбекский государственный университет

мировых языков

Научный руководитель: **Бахронова**

**Дилрабо Келдиёровна**

Доктор филологических наук (DcS),

профессор

**Аннотация** *Настоящая статья посвящена анализу лексико-семантических трансформаций, возникших в период пандемии COVID-19, с точки зрения социокультурной коммуникации. В исследовании рассматриваются лингвокультурологическая функция военной метафоры в пандемическом дискурсе, явление персонификации вируса, а также семантическая переинтерпретация концепта «свобода». В статье анализируются лозунги, символические синтагмы и эмоционально насыщенные дискурсивные средства, применявшиеся в общественной коммуникации Узбекистана и на международном уровне. Помимо этого, с лингвистической точки зрения исследуются альтернативные дискурсы, противостоящие официальным нарративам: речь политической оппозиции, отрицательные (негационистские) взгляды и феномен фейковых новостей. В работе применяются методы корпусного и дискурсивного анализа для изучения роли пандемической лексики как идеологического и эмоционального инструмента в публичной коммуникации. Результаты исследования свидетельствуют о том, что пандемическая лексика вышла за рамки медицинской терминологии и превратилась в лингвокультурологический феномен, кодирующий социальную психологию, политическую идеологию и культурные ценности. Язык пандемии сформировался как семантическая система, отражающая коллективные эмоции общества – страх, солидарность, ответственность и надежду.*

**Ключевые слова** *Лексико-семантические изменения, пандемический дискурс, военная метафора, персонификация, лингвокультурология, социальная коммуникация, фейковые новости, семантическое расширение, дискурс солидарности, концепт свободы, лексика COVID-19, публичная речь, идеологическая поляризация, эмоциональный дискурс, коллективная идентичность*

### Kirish

Pandemiya davrida davlat institutlari va hukumatning ommaviy kommunikatsiyada qo'llagan asosiy strategik yo'nalishlaridan biri, ayniqsa pandemiyaning dastlabki bosqichlarida, pandemiya = urush tengligini targ'ib qilishga qaratildi. Ushbu analogiyaning semantik asosi ravshan edi: urushning eng og'ir oqibatlari og'riq va o'lim bo'lsa, virusning jamiyatga ko'rsatgan halokatli ta'sirini ham xuddi shu modelga ko'chirish oson kechdi. Natijada, virus bilan kurashni "g'alaba qozonish kerak bo'lgan jang" sifatida talqin qiluvchi til birliklari faol qo'llanila boshladi. Ushbu metafora fuqarolar ongiga quyidagi g'oya orqali singdirildi: virusni yengish uchun qurol, strategiya va kuchlarni safarbar qilish zarur (Charteris-Black, 2014).

Metafora kengaygani sari virus dushman sifatida aniq identifikatsiya qilindi, unga inson xususiyatlari yuklanib, hattoki ixtiyoriy xatti-harakat nisbat berildi: "virus hujum qilmoqda", "yo'qolishni istamayapti", "qarshilik ko'rsatmoqda" kabi strukturalar keng qo'llanildi. Bu jarayonda urush semantik maydoniga xos terminlar pandemiya diskursiga faol kiritildi: to'qson, favqulodda holat, karantin, izolyatsiya, cheklov, lokdaun, hamda "egish, yengish" ma'nosidagi birliklar ushbu davrning o'ziga xos frazeologizmi sifatida shakllandi.

Pandemiya diskursida urush metaforasi asosida shakllangan birliklar orasida o'zbek tilida keng qo'llangan "Birgalikda yengamiz" iborasi alohida lingvokulturologik ahamiyat kasb etdi. Ushbu shior pandemiyaning biologik kasallik emas, balki dushmanga qarshi olib

borilayotgan jamoaviy jang sifatida talqin qiladi. Fuqarolar bu metafora vositasida jangchi emas, balki g'alabaga mas'ul bo'lgan jamiyat a'zosi sifatida ko'rsatiladi. Natijada oddiy passiv harakat – uyda qolish, karantin qoidalariga rioya qilish, milliy burch, ma'naviy safarbarlik va qahramonlik ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu jarayon pandemiya leksikasining semantik chegarasini kengaytirib, uni ijtimoiy birdamlik, mas'uliyat va g'alaba ramziga aylantirdi.

Urush metaforasi kuchaytirilishi jarayonida jamiyat ongida "qahramonlik" obrazini shakllantirish zarur edi. Shu bois, nafaqat kasallik oqibatlarini yengillashtirishga harakat qilayotgan tibbiyot xodimlari, balki oddiy fuqarolar ham "jangning qahramoni" sifatida e'lon qilindi. Uyda qolib, passiv ravishda karantin talablariga rioya qilgan fuqaro ham bu metaforik jangning "tanlangan himoyachisi" sifatida taqdim etildi. Virusning yangi va noma'lum tabiatga ega ekani, unga qarshi yetarli dori yoki vaktsina yo'qligi muammo sifatida emas, balki "kurash davom etmoqda", "xalq ishonishi lozim" kabi ritorik vositalar bilan ideallashtirildi. Jamiyatga shior sifatida quyidagi g'oya singdirildi: hozir mavjud bo'lgan vositalar yetarli bo'lmasa-da, qurollar safarbar qilingan, chora-tadbirlar ko'rilgan, jang boshlandi.

Metaforaning kuchayishida tashqi kommunikativ omillar ham muhim rol o'ynadi. Urushga xos bo'lgan sahnalashtirilgan "ko'rinish"lar ommaviy axborot vositalari orqali muntazam ravishda berib borildi: matbuot anjumanlari va rasmiy murojaatlarda siyosiy yetakchilar bilan bir qatorda yuqori martabali

harbiylar ham qatnasha boshladi. Ba'zan ularning joylashuvi ham ramziy tus olib, harbiylarning hukumat va sog'liqni saqlash vakillaridan "hierarxik jihatdan yuqori" lavozimda turgani haqida ong osti tasavvurlarini shakllantirdi. Shu tarzda pandemiya ommaviy nutqda sog'liqni saqlash muammosi emas, balki strategik xavfsizlik masalasi sifatida talqin qilindi.

Natijada urush metaforasi pandemiya davrida ingliz tilidagi matbuot va siyosiy diskursda nafaqat til hodisasi, balki ijtimoiy psixologiyani boshqaruvchi lingvokulturologik mexanizm sifatida shakllandi (Chudinov, 2004). Bu jarayon pandemiya leksikasining ma'nosini kengaytirib, uni jamiyatning qo'rquv, birdamlik, dushmanga qarshi birlashish va siyosiy ishonch kabi kollektiv qadriyatlarini kodlovchi semantik maydonga aylantirdi.

Pandemiya davrida ommaviy axborot vositalarida virus ko'pincha oddiy kasallik emas, insonga o'xshash dushman sifatida tasvirlandi (Chaiuk & Dunaievska, 2020). Til vositalarida unga xuddi ongli mavjudot kabi maqsadi bor, "zarar yetkazishga urinadi", "ayyorlik qiladi", "hujum qiladi", "yo'qolishni istamaydi" deb baho berildi. Bunday iboralar ilmiy ma'noda to'g'ri bo'lmasa-da, ular jamiyat ongida virusni tajovuzkor kuch sifatida tasavvur qilishga yordam berdi.

Ba'zi mutaxassislar virusni "aqlli", "ayyor", "hiylakor" deb atagan holda, uning xatti-harakatini "gerilla urushi"ga qiyoslashdi. Virus haqoratli so'zlar bilan tasvirlangan holatlar ham uchradi. Aslida bu ilmiy tasnif emas, balki odamlarning qo'rquvini yengish, xavfni "til orqali yengish" istagidan kelib chiqqan psixologik holatdir.

Tilimizda yana keng tarqalgan metaforalardan biri virusning "aldashi" bilan bog'liq: masalan, "virus immunitetni aldaydi", "hujayraga kirib, uni o'ziga bo'sundiradi". Biologik nuqtai nazardan qaraganda, virus haqiqatan ham organizm hujayrasidan foydalanadi va ko'payadi. Shuning uchun bu metafora oddiy odamga virusning xavfini tushunarliroq qilib ko'rsatadi.

Demak, virusga "aqlli dushman" sifatida baho berish ikki asosiy vazifani bajaradi:

Odamlar qo'rquvini kamaytiradi. Virusni "la'natlash", "yomonlik qilishda ayblash" orqali jamiyat psixologik himoyalanaadi.

Ilmiy ma'lumotni sodda tushuntiradi. Metafora virusning qanday harakat qilishini hamma tushunadigan tilda ifodalaydi.

Shunday qilib, pandemiya tilida metaforalar virusni oddiy biologik obyekt emas, balki jamiyat hayotiga xavf soluvchi dushman sifatida ko'rsatadi. Bu esa, pandemiya leksikasini tibbiy terminlardan tashqariga olib chiqib, uni ijtimoiy-madaniy hodisaga aylantiradi.

COVID-19 pandemiyasi zamonaviy global kommunikatsiya tizimida yangi leksik birliklar paydo bo'lishiga, mavjud so'zlarning esa semantik kengayishi va ideologik qayta baholanishiga sabab bo'ldi (Dobrić Basaneže, 2022). Pandemiya jarayonida shakllangan diskurs nafaqat tibbiy terminologiyani, balki jamiyatning madaniy, axloqiy va siyosiy tasavvurlarini qayta talqin qildi. Til pandemiyaning o'zi kabi inson hayotining turli jabhalariga ta'sir ko'rsatib, muhim ijtimoiy konseptlarni yangi semantik yuk bilan boyitdi. Pandemiya davrida ommaviy muloqotda virus va kasallikning kuchini ifodalash uchun ko'pincha urush metaforasi qo'llanildi. Jamiyatga yo'llangan murojaatlarda virus "dushman" sifatida tasvirlanib, uni yengish uchun "jang qilish", "kurashish", "frontda turish", "virusga qarshi safarbarlik" kabi iboralar faol ishlatildi. Bunday metaforalar xavf darajasini kuchaytirish, aholi ongida mas'uliyat va intizomni mustahkamlash funksiyasini bajardi (Baines & O'Shaughnessy, 2021). Ayrim matnli murojaatlarda virus hatto shaxsiyatga ega subyekt sifatida talqin qilindi: "virus hujum qilmoqda", "virus qarshilik ko'rsatmoqda", "virus yashirinmoqda" kabi personifikatsiyalar pandemiyaning oqibatlarini yaqqol tasvirladi. Bu holat pandemiya tilini oddiy tibbiy jarayonlardan ma'naviy va axloqiy muammolarga ko'chirdi. Virusga salbiy insoniy sifatlarining yuklanishi ("ayyor", "xavfli",

“ko‘rinmas dushman”) jamiyat ongida dahshat, xavotir va beqarorlik kabi hissiy reaksiyalarni kuchaytirdi. Natijada pandemiya tili nafaqat informativ, balki kuchli emotsional va ideologik vosita sifatida shakllandi. Shu bilan birga, pandemiya diskursida “erkinlik” tushunchasi ham yangicha talqin qilina boshladi. An’anaviy siyosiy-falsafiy talqinda erkinlik mas’uliyat bilan tanlov qilish huquqi sifatida qaraladi: inson o‘z xatti-harakatlariga javob beradi, uning erkinligi boshqalarning xavfsizligiga zarar yetkazmasligi kerak.

Pandemiya sharoitida, jumladan, O‘zbekistonda, ommaviy murojaatlar aynan mana shu yo‘nalishda olib borildi. “Uyda qolish – bu burch”, “O‘zingizni asrang – boshqalarni ham asragan bo‘lasiz” kabi chaqiriqlar erkinlikni jamoaviy mas’uliyat mezonida talqin qildi. Cheklovlar erkinlikka zid emas, balki uni himoya qilish vositasi sifatida ko‘rsatildi. Aksincha, pandemiya jarayonida erkinlikning egosentrik talqini ham kuchaydi: “maskasiz yurish huquqi”, “erkin harakatlanish”, “nimani xohlasam, shuni qilish” kabi qarashlar erkinlikni shaxsiy qulaylik va istaklar bilan tenglashtirdi. Bu holat jamiyatda ijtimoiy mas’uliyat va individual xohish o‘rtasida keskin ziddiyatni yuzaga keltirdi (Dijk, 2008). Natijada pandemiya leksikasida “erkinlik” ikki qutbli semantik konseptga aylandi: bir tomonda jamoaviy mas’uliyatga asoslangan erkinlik, ikkinchi tomonda esa shaxsiy xohishga asoslangan individuallashtirilgan erkinlik turdi. Shu tariqa, pandemiya leksikasi erkinlikni axloqiy kategoriya sifatida qayta talqin qildi va uni jamiyatning sog‘liqni saqlash tamoyillari bilan bog‘lab qo‘ydi. Pandemiya sharoitida til voqelikni in’ikos ettiribgina qolmay, uni yangi madaniy va axloqiy mazmun bilan qayta yaratdi. Urush metaforalari, virusning personifikatsiyasi, erkinlik konseptining yangicha talqini shuni ko‘rsatadiki, pandemiya leksikasi jamiyat psixologiyasi, siyosiy qarashlar va ma’naviy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq holda shakllanadi (Bakhronova, 2018). Natijada pandemiya terminlari tibbiy tushunchalar chegarasidan tashqariga chiqib, ideologik,

axloqiy va madaniy belgiga aylandi. COVID-19 atamalari zamonaviy leksik tizimda tibbiy emas, balki ijtimoiy hodisa sifatida shakllanmoqda. Til pandemiyaning o‘ziga xos “oynasi” bo‘lib, jamiyat qo‘rquvi, intizomi, noroziligi va qadriyatlarini aks ettirmoqda. Bu jarayon pandemiya leksikasining lingvokulturologik tadqiqi nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, psixologiya va madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

COVID-19 pandemiyasi davrida rasmiy nutqqa qarshi shakllangan muqobil diskurslar ikki asosiy yo‘nalishda kuzatildi: siyosiy muxolifat nutqi va inkorchi (negatsionistik) qarashlar (Chalova, 2021). Ba‘zan ularning pozitsiyalari va ishlatilgan dalillar bir nuqtada kesishib, rasmiy diskursni inkor etishning turli darajalarini shakllantirdi. Muxolif siyosiy nutqlarda hukumatning pandemiya bo‘yicha qabul qilgan qarorlari keskin tanqid qilindi: ayrim paytlarda “qaror qabul qilmadi”, boshqa hollarda “yaroqsiz chora ko‘rdi” degan da‘volar ilgari surildi. Bu kabi nutqlar pandemiyani “yangi holat emas”, balki “oddiy inqiroz”, “navbatdagi jiddiy vaziyat” sifatida ko‘rsatishga urinib, rasmiy statistik ma’lumotlarni, xususan, o‘limlar soniga oid raqamlarni “soxtalashtirish”da ayblashga qaratildi.

Inkorchilar (negatsionistlar) nutqi esa ikki shaklda namoyon bo‘ldi: mo‘‘tadil yo‘nalish virus xavfining oshirilganini iddao qilsa, ekstremal yo‘nalish hatto virusning o‘zi va pandemiya qurbonlarining mavjudligini inkor etishga borib yetdi. Bunday g‘oyalar ko‘proq ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaldi (Abramova, 2014). Til nuqtai nazaridan, bu diskurslar “biz/ular” oppozitsiyasi asosida qurildi: Biz – yaxshi, to‘g‘ri, halol; Ular, yomon, noto‘g‘ri, aldovchi. Bu qarama-qarshilikni kuchaytirish uchun “o‘lim”, “qashshoqlik”, “yolg‘on”, “falokat”, “yashirish” kabi kuchli salbiy semantikaga ega leksemalar ataylab qo‘llandi. Mazkur til o‘yini mazmunni ob‘yektiv tahlildan chiqarib, ideologik polyarizatsiyani kuchaytirishga xizmat qildi.

Pandemiya diskursining yana bir muhim ko'rinishi feyk xabarlar (fake news) fenomenidir. Bu atama ikki xil turdagi yolg'on axborotni qamrab oladi: disinformation – ataylab aldash maqsadida tarqatilgan ma'lumot va misinformation – niyatdan qat'i nazar, noto'g'ri bo'lib, odamlarni adashtirishga olib keladi (Brezina & Gablasova, 2021). Haust mexanizmi bo'yicha bu yolg'on axborotlar har xil shaklda yuzaga keladi: kontekstdan uzib olingan faktlar, ma'lumotni manipulyatsiya qilish, satirik yoki parodik xabarlar, umuman to'qima ma'lumotlar. Ularning tarqalish maqsadi ham rang-barang bo'lib, siyosiy-ideologik ta'sir o'tkazish, jinoyat (firibgarlik, pul o'g'irlash), vahima uyg'otish, hatto shaxsiy reklama va iqtisodiy manfaat kabi yo'nalishlarga ega.

Gutiérrez Coba va hamkorlarining tadqiqoti (Gutiérrez Coba et al., 2020) shuni ko'rsatdiki, eng keng tarqalgan feyk xabarlar azamiy tibbiy aldov yoki "mo'jizaviy davolanish" haqidagi iddaolar bo'lib, ular "koronavirusga qarshi vosita" sifatida kofe, dengiz suvi, limon, zanjabil, piyoz va sarimsoq aralashmalari, issiq fen, aspirin, tromboz dori vositalari, evar tilining zararli naton tizimi, hattoki xorli eritmalar kabi unsurlarni targ'ib qildi. Shuningdek, ayrim feyklar "niqoblar saraton chaqiradi" kabi asossiz vahima yaratishga qaratilgan edi.

Pandemiya feyklarining yana bir yo'nalishi "aybdor qidirish" fenomeniga qaratildi. Bunda pandemiya "maxsus qurilgan" yoki "puxta rejalashtirilgan" degan iddaolar ilgari surildi. Ayrim xabarlar 5G texnologiyasi, Bill Gates jamg'armasi yoki Xitoyni global miqyosda aholini qisqartirishga qaratilgan "fitna markazi" sifatida ko'rsatdi. Ushbu kabi yolg'on g'oyalar hatto "oliy darajadagi olimlar bayonoti" sifatida taqdim etilib, ularni yanada ishonarli ko'rsatishga urinildi.

Mazkur diskurslarning barchasi pandemiya tilining faqat tibbiy jarayonlarga asoslanmasdan, ijtimoiy psixologiya, siyosiy kurash va axloqiy tafakkur bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Fake news, oppozitsion metaforalar va inkor nutqi pandemiya leksikasining murakkab, ko'p

qatlamli semantik tizimga aylanishida muhim rol o'ynadi. Natijada COVID-19 til tizimi nafaqat kasallikni ifodalovchi vosita, balki ijtimoiy ong va ideologik nizolarni aks ettiruvchi lingvokulturologik fenomenga aylandi.

Pandemiya davrida tarqalgan vahima uyg'otuvchi xabarlarining muhim qismi "minglab o'limlar", "jasadlar to'planib ketgan shifoxonalar" kabi mazmun bilan bog'liq bo'lib, ular ko'pincha kontekstdan uzilgan, manipulyativ tasvirlar bilan birga tarqatildi. Soxta xabarlarining kam uchraydigan, ammo sezilarli guruhini vaksina ishlab chiqarishga oid "maxfiy ma'lumotlar", oziq-ovqat tarqatish aksiyalari, moliyaviy yordam, kupon va subsidiyalar haqidagi yolg'on e'lonlar tashkil qildi; hatto Italiyada go'yoki "ko'chaga pul sachratilgan" degan uydirmalar ham tarqaldi.

Mazkur negativ diskurslarga qarama-qarshi ravishda pandemiyaning ilk kunlaridan boshlab jamiyatni birdamlikka chaqiruvchi, umid va ijtimoiy hamjihatlikni targ'ib qiluvchi ijobiy nutqlar ham shakllandi. Ular ijtimoiy qo'llab-quvvatlash ruhini kuchaytirish uchun qo'shiq va umumiy ramzlar orqali ommalashtirildi. Masalan, pandemiya davrida O'zbekiston jamiyatida ham birdamlikni targ'ib qiluvchi ijobiy diskurslar ommalashdi (Bakhronova & Dadaboyev, 2021). Xususan, "Birgalikda kuchli bo'lamiz" shiori turli ijtimoiy aksiyalar, televideniye kampaniyalari, xayriya tashabbuslari hamda sog'liqni saqlash xodimlarini qo'llab-quvvatlash jarayonida keng qo'llanildi. Aholi tomonidan shifokorlarga qaratilgan "Doktorlarga rahmat!" aksiyasi, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan xayriya fondlari, "Saxovat va ko'mak" tashabbusi kabi tadbirlar pandemiya tilida birdamlik va umid kontsepsiyasining mustahkamlanishiga xizmat qildi. Shu jarayonda telekanallar, ijtimoiy tarmoqlar va mahalliy targ'ibot materiallarida "Yengamiz", "Birgamiz", "Birga boshdan o'tamiz" kabi qisqa, ruhlantiruvchi sintagmalar til madaniyatining asosiy vositasiga aylandi.

Shuningdek, pandemiya vaqtida aholi ruhiyatini ko'tarishga xizmat qilgan madaniy-

semantik vositalar ham birdamlik diskursining muhim qismi bo'ldi. Ayniqsa, Xalq artisti Yulduz Usmonovaning "Xasta bo'lma" qo'shig'i pandemiya sharoitida jamiyatning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlovchi madaniy ramzga aylandi. Qo'shiqdagi "Xasta bo'lma, omon bo'lgin" kabi iboralar sog'liq va hayotni saqlashga doir kollektiv istakni ifodalar ekan, u jamiyatning umumiy umid, duolar va bir-birini qo'llab-quvvatlash ruhiyatining til orqali ifodalangan namunasiga aylandi. Shu tariqa, pandemiya davridagi musiqiy matnlar ham ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi lingvomadaniy vosita sifatida shakllandi.

Pandemiya davomida ingliz tilidagi ommaviy madaniy diskursda ham birdamlik ruhini kuchaytirishga xizmat qilgan ijtimoiy ramzlar yuzaga keldi. Masalan, "We'll Meet Again" qo'shig'i Buyuk Britaniyada milliy birdamlik timsoliga aylandi va 2020-yil 8-may

kuni qirolicha Yelizaveta II murojaatida alohida ta'kidlandi. Bu qo'shiq pandemiya sharoitida jamiyatni ruhiy qo'llab-quvvatlash vositasiga aylandi. "Stay Home, Protect the NHS, Save Lives" shiori esa sog'liqni saqlash tizimini himoya qilishni fuqarolik mas'uliyati sifatida talqin qilib, ijtimoiy hamjihatlikning lingvistik modeli bo'ldi.

Pandemiya tilida ijobiy emotsional yukga ega qisqa sintagmalar, hamda yuksak emotsional ta'sir kuchiga ega qo'shiqlar birgalikda fuqarolarning ruhiy barqarorligini ta'minlash, qo'rquvni engillashtirish va birdamlikni kuchaytirish vazifasini bajardi (Covello, 2021; Bakhronova & Abdullayeva, 2019). Natijada, pandemiya leksikasi nafaqat tibbiy atamalar tizimi, balki madaniy, hissiy va ijtimoiy birlikni shakllantiruvchi lingvokulturologik fenomen sifatida ham shakllanganini ko'rish mumkin.

## References:

1. Abramova, E. S. (2014). Massmedijnyj diskurs: sushchnost' i osobennosti. *Filologicheskie nauki*, (12), 17–19.
2. Baines, P., & O'Shaughnessy, N. (2021). Political communication in a pandemic. *European Journal of Marketing*.
3. Bakhronova, D. (2018). Comparative analysis of linguistic anthropozoomorphic totems in Spanish and Uzbek. *Art Logos*, 2(4), 117–122.
4. Bakhronova, D., & Abdullayeva, S. Y. (2019). Axiological Evaluation as the Base of Knowledge and Cultural Research of Spanish and Uzbek Languages. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(11).
5. Bakhronova, D., & Dadaboyev, K. (2021). The linguistic formation of defense and engineering terms in Uzbek language. *Religación*, 6(30), e210871.
6. Brezina, V., & Gablasova, D. (2021). *Covid-19 Corpus Linguistics Report*. Lancaster University.
7. Chaiuk, T., & Dunaievska, O. (2020). Fear Culture in Media. *JHCA Research*.
8. Chalova, O. N. (2021). *Pragmatics of the syntax of COVID-19 discourse*. Minsk.
9. Charteris-Black, J. (2014). *Analysing Political Speeches*. Palgrave.
10. Chudinov, A. P. (2004). Kognitivno-diskursivnoe issledovanie metafory v tekstah SMI. MGU.
11. Covello, V. (2021). Risk communication during pandemics. *Journal of Public Health*.
12. Dijk, T. A. (2008). *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan.
13. Dobrić Basanež, M. (2022). COVID-19 driven language innovation. *Lingua*.
14. Gutiérrez Coba, L., et al. (2020). Desinformación en tiempos de pandemia: tipología de los bulos sobre la Covid-19. *El profesional de la información*, 29(3), e290315.